da, shuniigdek, eng ilg‘or mutafakkir, yozuvchi va ijodkorlarning asarlarada o‘rin olgan. Bunday buyuk-shaxslar o‘zlarining manfaatlari doirasidan yuqoriroq ko‘tarilib, adolat tushunchasini umuminsoniy manfaatlarda ifodalaganlar. Masalan, o‘tmishdagi og‘ir ekspluatatsiya va zulmga qarshi, asorat va qullikka qarshi, hukmron sinf va toifalarning imtiyozlari va boshqalarning kamsitilishiga qarshi, bosqinchilik va qirg‘in barot urushlar, uning natijasida xalq ommasining xonavayronligi, tekinxo‘rlik va maishatparastlikka qarshi qaratilgan, mehnat va mehnatkash xalqni qadrlash va ulug‘lash, mamlakatlar, xalqlar va odamlar o‘rtasida chin do‘stlik o‘tnatish, tinchlik va osoyishtalikni barqarorqilish, hamma uchun teng, barobar va farovon hayot qurish haqidagi fikrlar, g‘oyalar umuminsoniy mazmundagi fikrlardir. Lekin bu oliyjanob fikr va g‘oyalarning antagonistik jamiyatlarda ro‘yobga chiqishi, amalga oshishi mumkin emas edi, shuning uchun ular faqat xayol, orzu bo‘lib kelgan edi, xolos.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganlaridek, “Ajdodlarimiz armonlari o‘sha davrda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Mansur Motrudiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkir bobolarimiz hayoti, faoliyati, asarlarida o‘z talqinini topgan adolat va adolatparvarlik g‘oyalarida mujassam bo‘lgan” [1;16-b.].

Xulosa. Birinchidan, o‘tmishda yashab o‘tgan mutafakkirlarining adolat haqidagi fikrlari, g‘oyalari, qarashlari va ta’limotlari bilan tanishish, birinchidan, adolat haqidagi tugal, ilmiy asoslangan dunyoqarash shakllanishiga olib keladi. amalda, vujudga kelgan va rivojlanayotganyangi jamiyatdagi adolatli munosabatlarning qadri qimmatiga etish, nihoyat, uchinchidan, adolat tamoyillari kishilarning o‘zaro munosabatlarida kundalik odat shakliga kirib borishiga yordam beradi.

Ikkinchidan, xulosa o‘rnida aytganda, adolat tushunchasi nafaqat falsafiy, huquqiy, axloqiy, ma’naviy tushuncha, kategoriya, balki universal kategoriya hamdir. Adolat inson faoliyatini baholovchi tushuncha bo‘lib, uning ma’naviy faoliyatini ham baholashi mumkin. Hozirgi ma’naviy yangilanish jarayonlarida adolat tushunchasining universallik mazmun va mohiyati yanada teran ahamiyat kasb etib, yoshlarimizni kamolot omillaridan biri sifatida bo‘y ko‘rsatib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston srtategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021.
(2). Aliqulov H. Adolat buyuk donishmandlar talqinida. T., “Falsafa va huquq”, 2010.
(3). Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati. T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2021.
(4). Falsafa. Qomusiy lug‘at. T., O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2004.

Ismoilov Sobirjon To‘rabekovich (GulDU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi)

AKADEMIK IBROHIM MO‘MINOV FALSAFA MAKTABI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada so‘z Ibrohim Mo‘minov falsafa maktabi haqida boradi. Muallif o‘z maqolasida ushbu maktab namoyondalari va ularning boy ilmiy me’rosining ahamiyati, falsafiy maktabning o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida ma’lumotlar bergan hamda bu falsafa maktabining faoliyati haqida xulosalar chiqargan.*

Kalit so‘zlar: *falsafa, Ibrohim Mo‘minov, falsafiy maktab, ilmiy me’ros, o‘ziga xos jihatlar, ilmiy faoliyat, xulosalar.*

Исмаилов Собиржон Турабекович (доцент кафедры «Общественных наук» ГулГУ, кандидат философских наук)

ШКОЛА ФИЛОСОФИИ АКАДЕМИКА ИБРАГИМА МУМИНОВА

Аннотация. *Эта статья о философской школе Ибрагима Муминова. В своей статье автор приводит информацию о представителях этой школы и значении их богатого научного наследия, специфике философской школы, делает выводы о деятельности философской школы.*

Ключевые слова: *философия, Ибрагим Муминов, философская школа, научное наследие, особенности, научная деятельность, выводы.*

Ismailov Sobirjon Turabekovich (Associate professor of the department of “Social sciences” GulSU, candidate of philosophical sciences)

SCHOOL OF FILOSOPHY AKADEMIKAN IBRAGIM MUMINOV

Annotation. *This article is about the philosophical school of Ibragim Muminov. In his article, the author provides information about the representatives of this school and the significance of their rich scientific heritage, the specifics of the philosophical school, draws conclusions about the activities of this philosophical school.*

Key words: *philosophy, Ibragim Muminov, philosophical school, scientific heritage, features, scientific activity, conclusions.*

Kirish. Jahon xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida ona-Vatanimiz alohida o‘rin tutadi. To hozirgacha O‘zbekiston Sharq va G‘arb mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha yo‘nalish va sohalari, jumladan, ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotida o‘zining sezilarli izini qoldirgan. Bugungi kunda ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo‘llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga, ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni tezkor joriy etish O‘zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

“Muayyan millat o‘z falsafasini, avval, o‘zi chuqur o‘rganishi, dunyoqarashning asosiga aylantirishi, so‘ngra esa, zarurat bo‘lsa, boshqalarga ham tavsiya etishi va targ‘ib qilishi mumkin” [3;4-b.], deb yozadi taniqli faylasuf Q.Nazarov.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ushbu mavzuda akademik S.Shermuhamedov, professorlar: N. G‘oyipov, G.Navro‘zova, Q.Nazarov va boshqalar tadqiqot olib borishgan.

Jumladan, professor Q.Nazarov akademik Ibrohim Mo‘minov tadqiq etgan falsafiy mavzu va yo‘nalishlari haqida to‘htalib: “Ilmiy tadqiqot yo‘nlishlari ko‘p qirrali bo‘lib, izlanishlari va asarlari falsafa sohalari bo‘yicha dolzarb masalalarga bag‘ishlangan. Jahon falsafasi va insoniyat tafakkuri tarixi va tadriji, o‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanishi, ayniqsa, Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli, Mirzo Bedil falsafasiga alohida e’tibor qaratgan” [2;814-b.], deb yozadi.

Ushbu o‘rinda professor G.Navro‘zovaning quyidagi ta’kidini qayd etish mumkin: “Akademik I. Mo‘minovning tadqiqotlarida tasavvufga oid ma’lumotlarni mazmun-mohiyatiga qarab ikkiga bo‘lish mumkin:

1. Tasavvuf tarixiga doir.
2. Tasavvuf falsafasining asosiy tushunchalari xususida.

Tasavvuf ta’limotini tahlil etib, akademik I.Mo‘minov uni 3 ta quyidagi asosiy oqimga ajratdi:

1. Subyektiv idealizm: Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj va boshqalar.
2. Obyektiv idealizm: Abu Homid G‘azzoliy, Fariduddin Attor, Ibn Arabiy, Ahmad Yassaviy.
3. Panteizm: Sa’diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Mirzo Bedil” [1;130-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Jamiyat taraqqiyoti nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining yuksakligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik yo‘naltirilganligi, innovatsiyalarni tadbiq etilganligi bilan ham o‘lchanadi. Bu jarayonda esa milliy falsafamiz namoyondalari va ularning boy ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, o‘zbek falsafasining va milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash jarayoni xalqimizning boy ma’naviy-falsafiy merosini har tomonlama o‘rganish, keng xalq ommasiga etkazishni taqozo qiladi.

Ikkinchidan, o‘zbek falsafasi katta qismini islomiy qadriyatlarimiz: Qur’oni karim, Hadisi shariflar, tafsirlar, va tasavvufiy meros tashkil qiladi. Bu esa hozirgi davr xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, milliy falsafiy merosimizning muhim tarkibiy qismini I.Mo‘minov falsafiy maktabi va uning namayondalarining ta’limoti, shu jumladan, aynan bizning Vatanimizda shakllanib, endilikda butun dunyoga tarqalgan, jahon ilm-fani, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlari taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan o‘zbek falsafa maktabi tashkil etadi.

Biz I.Mo‘minov falsafiy maktabining ayrim jihatlari to‘g‘risida to‘xtalmoqchimiz, xolos.

“O‘zbekistonda falsafiy fikr taraqqiyotida Ibrohim Mo‘min maktabi qaror topgani ma’lum. Bu maktabning asosiy tamoyillari: axloqiy poklik, mantiqiy izchillik, milliy teranlik va davriy ko‘lamdorlik”, deb mushohada qiladi G‘aybulloh as-Salom” [5;242-b.].

Domlaning falsafiy maktabga asos solganligini quyidagi o‘ziga xos jihatlar bir qadar ochib va asoslab beradi:

–har qanday ilmiy maktabni asosi, markazi bo‘ladi. Masalan, bu Aristotel falsafiy maktabida Likkey maktabi, rus ilmiy maktabida Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Ulug‘bek ilmiy maktabida Ulug‘bek rasadxonasi, Ibrohim Mo‘minov falsafiy maktabida esa O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarkibidagi Falsafa va huquq instituti. Domla bevosita shu ilmiy dargohning tashkilotchisi va birinchi rahbari edi. Garchi, domlaning maktab yaratish g‘oyasi Samarqandda ishlab yurgan kezlarida boshlangan bo‘lsa-da, asosiy ish Toshkentdagi faoliyatida boshlandi. 1956-yil Tarix va arxeologiya instituti tarki-

bida falsafa bo‘limi tuzildi. 1957-yil shu institutning falsafa va huquq bo‘limlari asosida falsafa va huquq bo‘limi ochildi. Shu bo‘lim bazasida 1958-yil O‘zbekiston hukumatining 1-maydagi qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida Falsafa va huquq instituti ochildi;

–har qanday maktabda ta’lim beriladi, bir qator qo‘llanma va darsliklar o‘rganiladi. Buni chuqur anglagan domla bu masalani hal etishga chog‘langan edi. 1958-yilda “Dialektik materializm masalalar”, 1962-yilda “Tarixiy materializm masalalari”, 1964-yilda “Ilmiy ateizm asoslari”, 1967-yilda “Markscha-lenincha etika asoslari”, 1968-yilda “Markscha-lenincha filosofiya asoslari” darsliklari uning bevosita rahbarligida chop etildi. Bu asarlar to mustaqillik yillarigacha bir necha marta qayta nashr etilib, falsafa yo‘nalishida asosiy darslik va qo‘llanmalar sifatida foydalanib kelindi;

–har bir maktabni o‘quvchilar bo‘ladi. Ibrohim Mo‘minov maktabining o‘quvchilari safida bo‘lajak taniqli faylasuf olimlar: Mo‘bin Baratov, Muzaffar Xayrullayev, Erkin Yusupov, Said Shermuhamedov, Abulhay Valiyev, Haydar Po‘latovlar bo‘lajak professorlar: Omonulla Fayzullayev, Hamid Vohidov, Abdurahmon Ortiqov, Naim G‘oyibov, dotsent Anvar Sharipov va boshqalar bor edi. Ular domla boshlagan ishlarni eniga va bo‘yiga kengaytirdilarki, bu ilm tog‘i va tog‘ tizmasi ko‘kka bo‘y cho‘zib, uni dunyo ilm ahli tan ola boshladi. Ayni paytda, O‘zbekistonda 3000 dan ortiq va qardosh respublikalardagi domlaning minglab o‘g‘il va nevara shogirdlari faoliyat ko‘rsatayotibdiki, ular shu maktab o‘quvchilari bo‘lganliklaridan faxrlanadilar.

Domlaning ilmiy faoliyati va maktabi to‘g‘risida fikr bildirar ekan, professor N.G‘oibov o‘zining “Donishmand” risolasida quyidagi muhim ilmiy xulosalarni beradi” [6;36–37-b.]:

–u jahon falsafasi tarixiy taraqqiyotining ajralmas va mazmunan boy qismidir;

–inson mavzusiga falsafiy muammo sifatida e’tibor qaratdi;

–ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar birmuncha rivojlantirildi;

–bilish jarayoni masalalariga ahamiyat berildi;

–dialektikaning rivojlanishiga o‘ziga xos hissa qo‘shdi;

–panteizm ta’limotining sharqona yo‘nalishlari (vahdati vujud, vahdati mavjud) falsafiy ilmlar taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shdi;

–falsafa taraqqiyotida tasavvuf ta’limoti (tasavvuf falsafasi) g‘oyalari o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ibrohim Mo‘minov falsafa maktabi yuqoridagi xususiyatlari bilan jahon falsafasi taraqqiyotiga munosib hissasini qo‘shdi.

Domla Ibrohim Mo‘minovning mazmunli va samarali hayot-faoliyati va falsafa maktabi haqida, bizningcha, quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

–domla o‘z falsafiy maktabiga asos solgan inson. Bu maktabni “Ibrohim Mo‘minov falsafiy maktabi” yoki “O‘zbek milliy falsafa maktabi”, deyish mumkin;

–domla asos solgan “O‘zbek milliy falsafa maktabi” jahon falsafasi tarixida alohida o‘rin va mavqega ega bo‘lgan yunon, rim, xitoy, hind, nemis, rus falsafiy maktablari bilan bir qatorda turadigan maktabdir;

–domla Ibrohim Mo‘minov falsafiy maktabi vakillari ayni paytda ajdodlar an’anasiga sodiq qolgan holda, XXI asrda ham Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Bedil, Mashrab, Ibrohim Mo‘minov an’analarini davom ettirmoqdalar;

–domla Ibrohim Mo‘minov nafaqat Markaziy Osiyo, balki insoniyat tarixida ham “...eng buyuk jasorat ... ma’naviy jasorat” ko‘rsatgan bashar farzandlaridan biridir. Buni biz domlani Amir Temur nomini tiklash jarayonidagi faoliyatida ko‘rishimiz mumkin;

–domla Ibrohim Mo‘minov donishmandlar yurti Movarounnahr, Markaziy Osiyo, Turkiston o‘lkasinining farzandi, buyuk buxoriylar: Imom Buxoriy, Hafzi Kabir Buxoriy, Ibn Sino, Ismoil Somoniy, Abu Bakr Narshaxiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Ahmad Donish, Fitrat, Sadriddin Ayniylarning izdoshi, ular ishining davomchisidir;

–Ibrohim Mo‘minov nafaqat O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimi, o‘zbek xalqi, O‘zbekiston uchun, balki qardosh Markaziy Osiyo xalqlari uchun ham tom ma’nodagi ustozdir;

–domla Ibrohim Mo‘minov o‘z hayotining asosiy shiorlaridan biri “Temurona yashash va ishlash” hikmati bo‘lgan. Bu va allomaning boshqa purhikmat o‘gitlari biz avlodlarning har birimiz uchun ibrat, saboq va ilmiy maktabdir;

– domla Ibrohim Mo‘minov ilmiy merosi va u asos solgan maktab ming yillar faoliyat ko‘rsatajakki, oddiy millat fidoyisi va farzandi uchun bundan katta baxt yo‘q.

Xulosa. Hozirgi mustaqillikka erishgan davlatimizni mustahkamlash, milliy g‘urur tuyg‘usini har tomonlama shakllantirish, mustaqil tarzda tafakkur etish, milliy mafkuramizni kishilar ongiga singdirish,

ularda davrimizga xos va mos dunyoqarashni yaratish kabi mas'uliyatli vazifalar o'z yechimini kutayotgan bir paytda Ibrohim Mo'minov falsafiy maktabi vakillarning o'rni yaqqol sezilib turadi.

Zero, akademik S.Shermuhamedov yozganlaridek: "I.Mo'minov asos solgan ilmiy-falsafiy maktab o'z faoliyatini avj oldirish uchun hamma imkoniyatlarga ega bo'lgan holda, o'z asoschisi aytgan hikmatni muqaddas qadrlaydi: insonga, o'z millatiga, umuman, O'zbekiston xalqiga mehr va hurmat, uning gullab-yashnashi uchun xizmat qilish va yuksak mas'uliyat" [4;17-b.] bilib, Vatanimiz ravnaqiga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Navro'zova G. Naqshbandiya-hushyorlik yo'li. Monografiya, T.,"Fan", 2024.

(2). Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. Ikkinchi kitob, T., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2022.

(3). O'zbek falsafasi tarixi. (III jild). T., "Muharrir" nashriyoti, 2020.

(4). Shermuhamedov S. Xalq ma'naviyati va ma'rifatiga baxshida etilgan barakali umr. T., "Fan", 2004.

(5). G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T., "Sharq", 1997.

(6). G'oyibov N. Donishmand. T., "O'zbekiston", 2008.

Botirov Zafar Saydullayevich (Alfraganus universiteti o'qituvchisi)

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY DAVLAT QURUSHNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI

Annotasiyaю *Maqolada ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini shakllantirish asosida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va tarbiya masalasiga e'tibor qaratilgan. Shu o'rinda jamiyatni islohotlar dinamikasida muhim ko'rsatkishlarga erishilib kelmoqda va bu jarayonlar jamiyat ma'naviy hayotini ijtimoiy davlatga bog'liqligi yaxlit tizim sifatida samarali yoritiladi. Ular o'rtasidagi ijtimoiy-funksional munosabatlar uzviyligi to'g'risida qarashlari, ta'riflari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *ıjtimoiy davlat, yoshlar, ma'naviy-axloqiy tarbiya, huquq, iqtisod, qadriyat, integrativ, funktsional, turmush tarzi, xulq, mehnat, odob-axloq.*

Батыров Зафар Сайдуллаевич (преподаватель университета Альфраганус)

ПРАВОВЫЕ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОСТРОЕНИЯ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. *В статье рассматривается проблема обеспечения социальной стабильности и воспитания на основе формирования правовых основ социального государства. На данном этапе достигаются существенные показатели в динамике социальных реформ, и эти процессы наглядно демонстрируют зависимость духовной жизни общества от социального государства как целостной системы. Представлены их взгляды и определения относительно согласованности социально-функциональных отношений между ними.*

Ключевые слова: *социальное государство, молодежь, духовно-нравственное воспитание, право, экономика, ценность, интегративный, функциональный, образ жизни, поведение, труд, этика.*

Batyrov Zafar Saidullaevich (Lecturer at Alfraganus University)

LEGAL AND ECONOMIC BASIS FOR BUILDING A SOCIAL STATE IN UZBEKISTAN

Annotation. *The article examines the problem of ensuring social stability and education based on the formation of legal foundations of a social state. At this stage, significant indicators are achieved in the dynamics of social reforms, and these processes clearly demonstrate the dependence of the spiritual life of society on the social state as an integral system. Their views and definitions regarding the consistency of social and functional relations between them are presented.*

Key words: *Social state, youth, spiritual and moral education, law, economics, value, integrative, functional, lifestyle, behavior, labor, ethics.*

Kirish. Ijtimoiy davlatning huquqiy asoslarini shakllantirish uzoq muddatli jarayon bo'lib, bu jarayonda davlat, Fuqarolar jamiyati va xalqaro hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda tizimli olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy islohotlar tufayli insonning hayot kechirish darajasi ham kundan-kunga ortayotganligi davr yaqqol aks ettirlmoqda. Inson qadri davlatimizda eng ustuvor masala bo'lib, jamiyat tizimlarida o'z ifodasini topib kelmoqda. Ijtimoiy davlatning maqsadi inson manfaatlarini har tamonlama ta'minlashdan iborat bo'lib, mamlakatimizdagi barcha ko'rsatkichlar xoh u ta'lim bo'lsin, xoh u ishlab chiqarish bo'lsin, birinchi navbatda, aholi turmush darajasi va sifati bilan baholanamaqda. Farovonlikning asosiy kaliti insonga e'tibor bo'lib, ko'p jihatdan, u kishilarning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirilishi bilan bevosita bog'liqdir.